

Navoiy viloyati statistika
boshqarmasi

Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni. Navoiy viloyati doimiy aholi soni 2019 yil 1 oktyabr holatiga 992,4 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 12,8 ming kishiga yoki 1,3% ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 483,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,7%), qishloq aholisi soni 509,4 ming kishini yoki (51,3 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2019 yil yanvar-sentyabr


- Aholi soni 12,8 ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni 16,7 ming nafarni tashkil etdi.
- 3,2 mingta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida 6,2 mingta nikoh va 0,6 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.

Navoiy viloyati aholisining umumiyo'sishi (2019 yil yanvar-sentyabr oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 oktyabr holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, **2019 yil 1 oktyabr** holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 198,1 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 20,0 %ni) va Qiziltepa tumanida 151,1 ming kishini yoki (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Tomdi tumanida 14,6 ming kishini yoki (1,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Karmana tumanida 3,0% ni, Navbahor tumanida 1,9% ni, Xatirchi tumanida 1,8%ni, Qiziltepa tumanida 1,7 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Uchquduq tumanida 0,5 %ni va Konimex tumanida 1,0 %ni, tashkil etdi.

Demografik holat

**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soni.
(2019 yil 1 oktyabr holatiga)**


	<u>Jami aholi</u>	<u>Shahar aholisi</u>	<u>Qishloq aholisi</u>	<u>1 km kv ga to'g'ri keladiganlar soni</u>
Viloyat bo'yicha:	992 379	483 021	509 358	8,9
shaharlar:				
Navoiy	137 694	137 694	-	2754,0
Zarafshon	83 402	83 402	-	4170,0
tumanlar:				
Karmana	130 436	45 048	85 388	137,3
Konimex	35 352	15 944	19 408	3,8
Qiziltepa	151 096	48 332	102 764	69,0
Navbahor	112 424	16 069	96 355	71,6
Nurota	92 097	54 689	37 408	14,1
Tomdi	14 584	4 732	9 852	0,3
Uchquduq	37 194	32 466	4 728	0,8
Xatirchi	198 100	44 645	153 455	139,5

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 oktyabr holatiga aholining ehg ko'p shahar joylardagi ulushu viloyatning shahar aholisiga nisbatan Nurota tumanida 11,3% ni, va Qiziltepa tumanida 10,0 %ni, aksincha eng kam shahar aholi sonining uluhi Tomdi tumanida 1,0 %ni, va Navbahor tumanida 3,3 %ni tashkil etadi.

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 oktyabr holatiga aholining ehg ko'p qishloq joylaridagi ulushu Xatirchi tumanida 30,1% ni, va Qiziltepa tumanida 20,2 % ni, aksincha eng kam qishloq aholi sonining ulushi Uchquduq tumanida 0,9 % ni, va Tomdi tumanida 1,9 % ni tashkil etadi.

Demografik holat

**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi ulushi
(2019 yil 1 oktyabr holatiga, foizda)**




● shahar aholisi ● qishloq aholisi

AHOLINING TABIIY HARAKATI 2019 YIL YANVAR-SENTYABR

	2018 yil kishida	2019 yil kishida	o'sish, kamayish	2018 yil har ming kishiga	2019 yil har ming kishiga
Tug'ilganlar	15988	16738	750	22,2	22,7
O'lganlar	3069	3189	120	4,3	4,3
Tabiiy o'sish	12919	13549	630	17,9	18,4
Nikohlar	6329	6210	-119	8,8	8,4
Ajralishlar	741	685	-56	1,0	0,9

- Tug'ilishlar soni 16738 kishi bo'lib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 750 kishiga o'sganligini ko'rsatmoqda.
- O'lganlar soni 3189 kishi bo'lib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 120 kishiga o'sganligini ko'rsatmoqda.
- Nikohlar soni esa 6210 kishi bo'lib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 119 kishiga kamayganligi kuzatildi.
- Ajrimlar soni 685 kishi bo'lib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 56 kishiga kamayganligi kuzatildi.





Demografik holat

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 16738 bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib,(bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), o'tgan yilga mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,7 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega oshgan (2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 22,2 promille bo'lgan). Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Navoiy shahrida (21,4 promilledan 21,8 promillega), Navbahor tumanida (21,8 promilledan 22,5 promillega), Karmana tumanida (22,0 promilledan 24,4 promillega), va Xatirchi tumanida(23,7 promilledan 24,9 promillega), sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Zarafshon shahrida (21,7 promilledan 20,9 promillega), Konimex tumanida (21,8 promilledan 20,3 promillega), Qiziltepa tumanida (21,3 promilledan 20,3 promillega) va Tomdi tumanida (15,2 promilledan 13,1 promillega) kuzatildi.

Tugilganlar 2019 yil yanvar-sentyabr (kishida)

	2018 yil	2019 yil	O'sish sur'ati %
Navoiy viloyati	15 988	16 738	104,7
Navoiy sh.	2 171	2 232	102,8
Zarafshon sh.	1 326	1 295	97,7
Karmana	2 054	2 357	114,7
Konimex	487	535	109,9
Qiziltepa	2 352	2 356	100,2
Navbahor	1 786	1 881	105,3
Nurota	1 551	1 594	102,8
Tomdi	164	142	86,6
Uchquduq	668	678	101,5
Xatirchi	3 429	3 668	107,0

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas,yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'y 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



O'g'il bolalar
9229 nafar

Qiz bolalar
7509 nafar

Demografik holat

Vafot etganlar. **2019 yilning yanvar-sentyabr** oylarida 3189 ta o'lim qayd

etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan o'zgarmagan (2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 4,3 promille bo'lgan). O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Konimex (4,4 promilledan 5,1 promillega), Navbaxor (3,9 promilledan 4,4 promillega) Karmana (4,6 promilledan 4,8 promillega) va Xatirchi (4,0 promilledan 4,2 promillega) tumanlarida o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Navoiy shaxrida (4,9 promilledan 4,8 promillega), Zarafshon shaxrida 3,8 promilledan 3,4 promillega), Qiziltepa (4,1 promilledan 3,9 promillega), Tomdi (4,1 promilledan 2,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

erkaklar 1780

kishi



ayollar 1409


kishi

Vafot etganlar 2019 yil yanvar-sentyabr (kishida)

	2018 yil	2019 yil	O'sish sur'ati %
Navoiy viloyati	3069	3189	103,9
Navoiy sh.	495	489	98,8
Zarafshon sh.	233	212	91,0
Karmana	430	468	108,8
Konimex	99	133	134,3
Qiziltepa	448	437	97,5
Navbahor	318	368	115,7
Nurota	325	331	101,8
Tomdi	44	32	72,7
Uchquduq	105	106	101,0
Xatirchi	572	613	107,2

Demografik holat

**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
2019 yil 1 oktyabr holatiga (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)**



2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 63,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,4 %i o'simtalardan, 7,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,9 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 121 kishini tashkil etib shundan 68,6%i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 5,8%i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 12,4%i tug'ma anomaliyalardan, 1,7%i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,8 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan va 10,7%i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Demografik holat

Nikoh.2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 6,2 ming nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,4 promilleni tashkil etdi. 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi. (2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 8,8 promille bo'lgan). Tuzilgan nikohlar koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Zarafshon shaxrida (7,1 promilledan 7,7 promillega), Karmana (9,1 promilledan 9,4 promillega), Tomdi (4,5 promilledan 5,0 promillega) tumanlarida o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi, Navoiy shahrida (9,0 promilledan 8,3 promillega), Qiziltepa (8,2 promilledan 7,8 promillega), Navbaxor (10,1 promilledan 8,8 promillega), Nurota (8,9 promilledan 8,8 promillega), Uchquduq (8,5 promilledan 7,2 promillega), Xatirchi (9,4 promilledan 9,1 promillega), tumalariga to'g'ri kelmoqda.


Tuzilgan nikohlar 2019 yil yanvar-sentyabr (kishida)



	2018 yil	2019 yil	O'sish sur'ati (%) da
Navoiy viloyati	6 329	6 210	98.1
Navoiy sh.	916	846	92.4
Zarafshon sh.	437	479	109.6
Karmana	850	905	106.5
Konimex	153	171	111.8
Qiziltepa	911	881	96.7
Navbahor	823	731	88.8
Nurota	600	605	100.8
Tomdi	48	54	112.5
Uchquduq	234	199	85.0
Xatirchi	1 357	1 339	98.7

Demografik holat

Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 685 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaygan (2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 1,0 promille bo'lган). Ajrimlar koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Konimex tumanida (0,9 promilledan 1,2 promillega), Navbaxor tumanida (0,7 promilledan 0,8 promillega), Zarafshon shahrida (1,2 promilledan 1,3 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Navoiy shahrida (1,9 promilledan 1,4 promillega), Qiziltepa (0,8 promilledan 0,6 promillega), Tomdi (0,7 promilledan 0,3 promillega) Uchquduq (1,6 promilledan 1,3 promillega) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Nikohdan ajralganlar 2019 yil yanvar-sentyabr (kishida)

	2018 yil	2019 yil	O'sish sur'ati (%) da
Navoiy viloyati	741	685	92.4
Navoiy sh.	195	140	71.8
Zarafshon sh.	76	80	105.3
Karmana	95	99	104.2
Konimex	19	32	168.4
Qiziltepa	86	72	83.7
Navbahor	61	65	106.6
Nurota	35	33	94.3
Tomdi	7	3	42.9
Uchquduq	43	37	86.0
Xatirchi	124	124	100.0


Demografik holat

Aholi migratsiyasi (kishida)

	2018 yil yanvar-sentyabr	2019 yil yanvar-sentyabr
Ko'chib kelganlar	9822	7914
Ko'chib ketganlar	10835	8620
Migratsiya saldosi	-1013	-706



Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2019 yil yanvar-sentyabr (birlik)





Demografik holat

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 oktyabr holatiga kuchib kelgan yuqori bolgan tumanlar 2018 yilning mos davriga nisbatan Konimex tumanida 139,6%ni Navoiy shahrida 100,6%ni, aksincha eng kam ko'chib kelganlar bo'yicha Uchquduq tumanida 55,4%ni, Nurota tumanida 57,3%ni, Karmana tumanida 68,1%ni Navbahor tumanida 70,3%ni, Xatirchi tumanida 70,3%ni, Zarafshon shaxrida 90,8%ni, va Qiziltepa tumanida 97,4%ni tashkil etdi.



Ko'chib kelganlar 2019 yil yanvar-sentyabr (kishida)

	2018 yil Ko'chib kelganlar	2019 yil Ko'chib kelganlar	O'sish sur'ati (%) da
Navoiy viloyati	9822	7914	80.6
Navoiy sh.	2020	2033	100.6
Zarafshon sh.	1182	1073	90.8
Karmana	2538	1729	68.1
Konimex	275	384	139.6
Qiziltepa	495	482	97.4
Navbahor	832	585	70.3
Nurota	550	315	57.3
Tomdi	264	238	90.1
Uchquduq	648	359	55.4
Xatirchi	1018	716	70.3

Demografik holat



Ko'chib ketganlar 2019 yil yanvar-sentyabr (kishida)


	2018 yil Ko'chib ketganlar	2019 yil ko'chib ketganlar	O'sish sur'ati (\%) da
Navoiy viloyati	10 835	8 620	79.6
Navoiy sh.	3 390	2 456	72.4
Zarafshon sh.	1 619	1 237	76.4
Karmana	1 005	889	88.5
Konimex	425	466	109.6
Qiziltepa	625	528	84.5
Navbahor	641	427	66.6
Nurota	589	501	85.1
Tomdi	302	215	71.2
Uchquduq	1 133	877	77.4
Xatirchi	1 106	1 024	92.6

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, **2019 yil 1 oktyabr** holatiga ko'chib ketish yuqori bo'lgan tumanlar 2018 yilning mos davriga nisbatan Konimex tumanida 109,6%ni, aksincha eng kam ko'chib ketganlar bo'yicha Navbahor tumanida 66,6%ni, Tomdi tumanida 71,2%ni, Navoiy shaxrida 72,4%ni, Zarafshon shaxrida 76,4%ni, Uchquduq tumanida 77,4%ni, Nurota tumanida 85,1%ni, Karmana tumanida 88,5%ni, Xatirchi tumanida 92,6%ni, tashkil etdi.

Demografik holat



Viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni 2019 yil yanvar-sentyabr (birlik)



Navoiy viloyati statistika
boshqarmasining
Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi

(0 436) 223-07-41